



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

295-5-74-Q/25

Nurota tumani hokimligi

Nurota tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktabrdagi "Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-186-sonli farmoni, Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 24-oktabrdagi 243-5-0-Q/25-sonli qarori hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 22-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 24-oktabrdagi 243-5-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirishi belgilansin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Bo'riyev), tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Z.Boboyev)larga:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuman bo'linmalari faoliyati ustidan bevosita rahbarlikni amalga oshirib, ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishini samarali tashkil etish;

tajriba-sinov davrida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda viloyat hokimligiga axborot kiritib borish;

tuman hokimligi tuzilmasiga o'tkazilayotgan bo'linmalar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida:

bo'linmalar faoliyati natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish;

bo‘linmalar faoliyatini samarali tashkil qilishga ko‘maklashish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror xalq deputatlari Nurota tumani Kengashi tasdig‘iga kiritilsin.


5. Qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tumani hokimligi boshqaruv apparatining TUZILMASI



**Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – 63 nafar.
Har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchilari soni – 28 nafar.**

Shtat birliklarini shakllantirishda rahbar xodimlar (rahbar va o'rinbosarlari, maslahatchi, guruh, bo'lim boshliqlari va o'rinbosarlari, sho'ba boshlig'i, o'rinbosari) va ijrochilar (bosh mutaxassis, rahbar yordamchisi, yetakchi mutaxassis, mutaxassis) kamida 1/3 nisbatda bo'lishi lozim.

Belgilangan mas'ul xodimlar shtat birliklari soni 1 nafardan iborat bo'lganda bosh mutaxassis lavozimi kiritiladi.

Hokim o'rinbosarlariga biriktiriladigan yo'nalish va tashkilotlar tuman hokimi tomonidan belgilanadi.